

## O‘ZBEKISTONDA SUV MUAMMOSINI OLDINI OLISH INSON VA TABIAT UCHUN ZARURIY MASALA

**Dadaboyeva Madinaxon Aziz qizi**

Qo‘qon universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda O‘zbekistonda suv va unga bo‘lgan talab, uning sifati kabi masalalar ekologik muammolarning biriga aylanib bo‘lganligi va buni oldini olish masalalari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ekologiya, suv, salomatlik, zaxira, global, tanqislik, sof

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется тот факт, что сегодня в Узбекистане вода и ее потребность, ее качество стали одной из экологических проблем и вопросов предотвращения этого.

**Ключевые слова:** Экология, вода, здоровье, резерв, глобальный, дефицит, чистая.

### ABSTRACT

The article analyzes the fact that today in Uzbekistan water and its need, its quality have become one of the environmental problems and issues of preventing this.

**Keywords:** Ecology, water, health, reserve, global, deficit, clean.

O‘zbekiston geografik jihatdan suv manbaiga to‘liq ega emasligi insonlar va ekologiya uchun ko‘plab salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi tabiiy. Chunki bugungi kunda suv zaxiralarining kamayishi, suv tanqisligi global muammolardandir. Mutaxassislarining fikricha, 2030 yilga borib O‘zbekistonda ham suv tanqisligi kuzatiladi. Bu O‘zbekiston fuqarolari uchun o‘ta xavotirli holat. Aholi sonining o‘sishi, yaxshi yashashga bo‘lgan intilish esa yildan yilga suvga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda.

“O‘zsuvta‘minot”i ma‘lum qilishicha, respublika iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan bir yilda o‘rtacha 56-57 mlrd.kub.m. miqdorida suv resurslaridan foydalaniladi. Shundan 48-49 mlrd.kub.metr., ya‘ni 87 foiz qishloq xo‘jaligida, 5,5 mlrd.kub.m. (9 foiz) energetika, sanoat va baliqchilik maqsadlarida, atigi 2,2 mlrd.kub.m. (4 foiz) ichimlik suv ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladi.

O‘zbekiston suv ta‘minoti tashkilotlarida ichimlik suvi aholining soni, ularning turmush sharoitlari hamda texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqiladi. 2022 yilda “O‘zsuvta‘minot” AJ tizimidagi korxonalar tomonidan 1 728 mln.kub.metr yoki o‘rtacha kuniga 4 734 ming kub.metr ichimlik suv ishlab chiqilgan. Bu suvga talab kundan kun oshib borayotganini tasdiqlaydi.

2030 yilgacha aholining o‘shishi va yashash sharoitlarining yaxshilanishi natijasida markazlashgan ichimlik suvga bo‘lgan talab oshib borishi, 2022 yilga nisbatan ichimlik suv ishlab chiqarish hajmi 11 foizga oshishi kutilmoqda.

Suv hajmining oxirgi yillarda kamayishi yoki ko‘payishi bo‘yicha ham ayrim fikr mulohazalar mavjud. Suv hajmlarining oxirgi yillarda o‘zgargani, keyingi yillarda qanchaga yetishi va ko‘payish hamda kamayishini aniqlash bo‘yicha Suv xo‘jaligi vazirligi va Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi “O‘zbekgidrogeologiya” DUK tomonidan ma‘lumotlar olish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda O‘zbekistonning katta shaharlarda suv tanqisligi sezilmasada, bu vaqtinchalik holat. Shaharlarda suv muammosi bo‘lmasligi uchun ham maxsus chora-tadbirlar qo‘llanilishi bugungi kun talablaridan biridir.

O‘zbekistonda suv tanqisligini oldini olish masalasi bo‘yicha bir necha yil oldin zarur o‘rganishlar olib borilib, eng kerakli loyihalarga e‘tibor qaratish bo‘yicha ishlar boshlangan. Jumladan, 2023-2030 yillarda respublika bo‘yicha qariyb 50 ming.km.dan ziyod ichimlik suv tarmoqlari hamda 2 ming dona inshootlarning qurilishi va rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilmoqda . Bunga 28,5 trln.so‘m (shundan xalqaro moliya institutlari ishtirokida 18 trln.so‘m) mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan. Biroq ushbu mablag‘larning o‘z muddatida va zarur miqdorda moliyalashtirilishida muammolar vujudga kelishini ta‘kidlash lozim. Yer osti va yer usti suv resurslarini “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ga ko‘ra birinchi navbatda ichimlik suvi uchun ishlatilishi belgilab qo‘yilgani va hozirda ichimlik suv uchun suv resurslarining bor-yo‘g‘i 4-5 foizi ishlatilishini hisobga olsak, ichimlik suvni ishlab chiqarishda va qishloq hamda katta shaharlar aholisiga yetkazib berilishida jiddiy uzilishlar kutilmaydi .

Aholini uzluksiz ravishda sifatli ichimlik suv bilan ta‘minlash maqsadida respublikamizning yirik shaharlarida Davlat budjeti va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xonobod-Andijon magistral ichimlik suv quvurining 2-bosqich 2-qismini qurish natijasida Andijon shahrining 372 ming aholisi ichimlik suvi ta‘minoti yaxshilanadi.Osiyo infratuzilma investitsiyalari bankining mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan “Buxoro viloyatining suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida 1,25 mln. nafar aholining ichimlik suv ta‘minoti yaxshilanadi. Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan

“Damxo‘ja” mintaqalararo suv tizimiga “Galereya” usulidagi suv olish inshootini qurish” loyihasi doirasida ichimlik suv inshootining quvvatini 215 ming kub.m. dan 315 ming kub. oshirilishi natijasida Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarining 1 485 ming nafar aholisining ichimlik suvi ta’minoti yaxshilanadi. Bu kabi loyihalar amalga oshirilishi natijasida Jizzax, Qarshi shahri, Namangan, Toshkent, Xorazm viloyatlari, shuningdek, Termiz shahrining markazlashgan ichimlik suv ta’minoti yaxshilanadi.

O‘zbekistonda kutilayotgan suv tanqisligi oqibatlarini yumshatish maqsadida quyidagi ishlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- iste’molchilar tomonidan ichimlik suvidan samarali foydalanish;
- aholi orasida ichimlik suvdan foydalanish madaniyatini targ‘ib qilish;
- ichimlik suv tizimlaridagi qoidabuzarlik holatlarining oldini olish va aniqlangan holatlar yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rilishini ta’minlash;
- qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini tomchilatib sug‘orish texnologiyalari bilan qamrab olish va mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish;
- mavjud sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari bo‘yicha qat’iy monitoring olib borish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- sug‘orish maydonlari uchun suv olish limitlarini belgilash;
- suv omborlaridagi suv resurslaridan foydalanishni to‘liq nazoratga olish, ayniqsa, yirik suv omborlaridan suv chiqarish va nasos stansiyalaridan foydalanishni qat’iy ravishda aniq hisob-kitoblarga asoslangan talabnomalar bo‘yicha amalga oshirish.

O‘zbekistonning suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi normativ hujjatida fuqarolar e’tibor berishi kerak bo‘lgan zaruriy atamalar keltirilgan. Ularni ayrimlari eslatib o‘tilmoqda:

suv obyektlarini muhofaza qilish - suv obyektlarini saqlash va tiklashga qaratilgan tadbirlar tizimi;

suv rejimi suv obyektlari va tuproq-gruntda suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi;

suv resurslari foydalaniladigan yoki foydalanilishi lozim bo‘lgan suv obyektlari suvlari;

Inson suvdan foydalanishda ekologik omillar ham mavjud bo‘ladi. Ekologik omillar - atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o‘ziga xos ta’sir etuvchi ma’lum sharoitlari va elementlari majmui. Ekologik omillar 2 katta guruh - abiotik va biotik omillarga bo‘linadi. Ekologiyada „cheklovchi omillar“ tushunchasi ham mavjud, ular tarkibiga organizmlar mavjudligi va rivojlanishini cheklovchi har qanday omilni kiritish mumkin. Tirik organizmlarga ta’sir etuvchi muhitning har qanday bo‘laklari ekologik omillar deyiladi. Muhit quruqlik, suv, havo va yer osti qismlaridan iborat.

Tashqi muhit tushunchasidan tashqari yashash sharoitlari degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bu tushunchaga organizmning yashashi uchun zarur bo'lgan elementlar yoki omillardan yorug'lik, issiqlik, suv, oziqlanish va shu kabilar kiradi. 1933-yilda D.N.Kashkarov muhit omillarini 3 guruh (iqlim, edafik va biotik)ga bo'ladi. Keyinchalik 1950-yilda Alyoxin ekologik omillarni iqlim, edafik, orografik, biotik, antropogen va tarixiy guruhlariga ajratib o'rganishni taklif qiladi. Ekologik omillar 3 ta asosiy guruhga bo'linadi:

1. Abiotik omillar-anorganik tabiat sharoitining yoki o'lik tabiatning yig'indisi. Bularga harorat, yorug'lik, namlik, suv, tuproq, relyef kiradi.

2. Biotik omillar: Bunga tirik tabiat elementlari (tirik organizmlarning bir-biriga va yashash muhitiga ta'siri) kiradi. Biotik omillar fitogen va zoogen omillarga bo'linadi. Fitogen omillar deganda yuksak va tuban o'simliklarning organizmga ta'siri e'tiborga olinsa, zoogen omillar deganda esa organizmga barcha hayvonlarning ta'siri nazarda tutiladi.

3. Antropogen omillar-bu inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan omillar, ya'ni odamlarning o'simlik va hayvon turlari yoki ular guruhlarining tuzilishiga ko'rsatgan ta'siridir. Tirik organizmlarga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonda yuzaga kelayotgan suv tanqisligi muammosini faqatgina insonlarning suvga nisbatan bo'layotgan oqilona munosabatlari orqaligina bir oz bo'lsada bartaraf etish mumkin. Kelajak avlod va tabiatni asrash butun O'zbekiston axolisining burchi ekanligini televideniya va OAV orqali muntazam eslatib borish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Sattarov Abdumurod Sattarovich. oqava suvlardan sifatli ichimlik suvi olishda biotexnologik tozalash usullarining ahamiyati. Monografiya. India 2022.
2. Barayev F.A., Serikbayev B.S., Mamasoliyev A.B va boshqalar. Suv resurslari va suvdan tejamli foydalanish. Toshkent, 2014
3. Frog B.N.Levchenko A.L. Vodopodgotovka. M.1996.
4. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
5. Jumanova, S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
6. Rahimboev F.M. Gidrotexnikadan ruscha-o'zbekcha qisqacha izohli lug'at. – T., 1996. 5.Meliorator uchun ma'lumotnoma /tuzuvchi B. S. Maslov (rus tilida) – M., 1980